

**“KAYFIYAT” KONSEPTI VERBALIZATORLARINING QIYOSIY TAXLILI  
 (“BOBURNOMA” ASARI ASOSIDA KAYFIYAT KONSEPTINI NUTQDA  
 IFODALASH**

**Abdusattorova Begoyim Po’latjon qizi**

*Erkin tadqiqotchi*

Tel: +998934292775

Email: [begoyimabdusattorova@mail.ru](mailto:begoyimabdusattorova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Boburnoma” asari asosida kayfiyat konsepti taxlil qilinadi va ichki kechinmalarni ifodalashda so’zlardan tashqari fonetik vositalar orqali ekspressivlikni kuchaytirish yoki kuchsizlantirishda urg’uning o’rni muhimligi haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** nutq, verbalizator, emotsionallik, ta’sirchanlik, ruhiy holat, ko’ngil-ko’tarinki kayfiyat, verbalizator.

**Annotation:** This article analyses mood concept verbalizers based on the work “Boburnoma” and its English translation, and highlights the importance of accent in enhancing or weakening expressiveness through phonetic means other than words in expressing innerexperiences.

**Key words:** verbalizer, speech, emotionality, sensitivity, state of mind, cheerful mood.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вербализаторы понятий настроения на основе произведения “информация о том, что говорящий выражает слушателю свои внутренние переживания непосредственно с помощью фонетических средств, и подчеркивается значение ударение в усилении и ослаблении выразительности в речи.

**Ключевые слова:** Речь, эмоциональность, впечатлительность, состояние души, веселое, настроение, вербализатор.

## KIRISH

Insonning til orqali fikr va xis-tuyg’ularini ifodalashi tilning tafakkur bilan bevosita bog’liqligini namoyon qiladi va fonetik vositalar bilan ham ifoda etiladi. Ma’lum bo’ladiki, tilning eng muxim birliklaridan biri bu fonetik usullar orqali xar bir so’zlovchi o’zining kayfiyatini va xis tuyg’ularini tinglovchilarga yetkazib bera olishdir. Demak, nutq jarayonida nutq tovushlaridagi emotsionallik, ta’sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, ularning badiiy qo’llanish qoidalari, fonetik stilistikating o’rganish ob’ekti xisoblanadi. So’zlovchi o’z ichki kechinmalarini tinglovchiga yetkazib berishda bevosita fonetik vositalar orqali ifodalaydi. Nutqda ekspressivlikni kuchaytirish va kuchsizlantirishda urg’uning ahamiyati katta. Urg’u orqali so’zlovchi biron bir so’zni yoki so’zning ma’lum bir bo’g’inini alohida ajratib ko’rsatishdan tashqari, berilayotgan fikrga o’z munosabatini qay darajada ekanligini ifodalashda urg’udan foydalanishi mumkin. O’zbek tilida urg’uli bo’g’indagi unlini kuchli talaffuz qilish orqali ma’noni kuchaytirishda ikki xolat mavjud: 1)Urg’uli bo’g’in kuchliroq talaffuz qilinadi: - Ahyon-ahyonda Boburiy mening qoshim- ga kelar edi. Lekin men hayo va tortinchoqlik bois Boburiy tomonga tik qaray olmasdim: iltifot

va gaplashish qaerda deysiz! Nash'a va iztirob sababidan shukr qilar edim, ketganidan shikoyat qilishga mening qanday imkonim bo'lsin? Mulozamat taklif qilmoqqa ham kimda haddu toqat bor edi! - Axir pastkash, qobiliyatsiz, zoti-yu nasabi notayin, no'noq va shijoatsiz, noinsof vaadolatsiz bu badbaxtga xokimiyat xayf emasmi! [But when they reached the Aubaj ferry, that ungrateful infidel, Khusrau Shah, in his aspiration to sovereignty- and to what sort of sovereignty, pray, could such a nobody attain? A person of no merit, no 220 birth, no lineage, no judgement, no magnanimity, no justice, no legalmindness- laid hands on Bai-sunghar Mirza with his begs and bowstrung the Mirza]. Urg'uni bo'g'inga ko'chirish va shu bo'g'indagi kuchli talaffuz orqali ma'noni kuchaytirishda urg'u xar qanday so'zda to'g'ridan to'g'ri va hoxlagan bo'g'inga ko'chirilavermaydi, qo'sh undoshli so'zlarda urg'u shu qo'sh undosh oldidagi unlida ko'chiriladi va shu unlini kuchli talaffuz etish orqali ma'noni kuchaytirishimiz mumkin: Guzaro kayfiyat, ma'yus bo'lmoq[3,5]. Ayrim qo'sh undoshlardan oldingi so'zlarda urg'u aslida qo'sh undoshdan oldingi unlida bo'ladi va shu unlini kuchli talaffuz etish orqali ma'no kuchayaadi.O'zbek lingvomadaniyati vakillari tilda ko'rgilli, ko'ngilsiz derivat sifatlari ko'plab nutq qismlari bilan ya'ni olmosh, yordamchi so'z turkumlari bilan birikadi. Ular boy va turli tuman emotsiyal- baxo ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu leksema bevosita inson kayfiyatini tasvirlaydi; ko'tarinki ko'ngil-ko'tarinki kayfiyat. Kayfiyat vertikal o'lchovining o'rta qismi xotirjamlik bilan o'zaro moslashib, ijobjiy emotsiyalar yuqoriga, salbiylar pastga xarakatlanish bilan bog'lanadi; ko'ngli qoldi,ko'ngli ko'tarildi[5,7].

### **ADABIYOTLAR TAXLILI**

Bobur asarda voqeallikka moxiyat tomondan yuqori darajada qaraydi, nochor axvolini tasvirlashda va g'alaba tantanasiga baxo berishda samimiy va tanqidiy xazillar bilan voqeani yoritadi. Masalan Andijondagi qo'zg'olon bostirilganda qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'lган. Boburning atigi yetti askari bor yedi. Ancha payt o'tgach, Bobur ta'qibchilar soni noma'lum ekanini bilib afsusda qoladi; "...qovg'inchi yigirma-yigirma besh kishi ekandur, biz sakkiz kishi eduk, nechukkim mazkur bo'ldi. Agar ul vaxmda muncha kishi yekanini taxqiq bilsak yedi, yaxshi urushur eduk...qochg'on yog'iy ko'p bo'lsa xam oz qovg'unchi bila chexra bo'la olmas. Nechukkim, debturlar: " safi mag'lubro xo'e basandast ". (" They were twenty or twenty-five chasers and we were eight people. If we only we knew how many people they were in that panic, we would have fought well. As the proverb goes "Enough is enough for the defeated").

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Asardagi ko'plab xajviy epizodlar bu asarning o'ziga xos xazil-mutoyibasini ko'rsatmaydi. Boburning yengilmas afg'on jangchilari tomonidan mag'lubiyatga uchrashi, uni og'zini tishlagani, xalq orasida bu xolatni xazil-mutoyiba bilan xikoya qilinishi, askarlarning bir birini qorong'uda tanimay to'sganligi bir zumga bo'lsa xam o'quvchini zeriktirib qo'yaydi [6.30]. 221 Inson ruhiy holatini aks ettirish murakkab jarayon. Inson ruhiyatida hali shakllanib ulgurmagan tug'yonlar, ismsiz tuyg'ular, nomsiz hissiyotlar yashirin. Bobur o'z asarida ana shunday murakkablikdagi jarayonni nutqda ifodalashga intilgan. Boburning Hindistonda yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan, Rampur shahridagi

Rizo kutubxonasida saqlanayotgan, Hamid Sulaymon tufayli vatanimizga yetib kelgan qo'lyozma nusxasi so'ngida Boburning o'z qo'li bilan bitilgan shunday bayti bor: Har vaqtki ko'rgaysen mening so'zumni, So'zumni o'qub yod qilgaysen o'zumni. «Boburnoma»da, avvalo, jangu jadallardan horigan, osoyishtalik bilmagan, sargashtalikda umr kechirgan oddiy inson ruhiyati o'z aksini topgan. Shu bilan birga, voqelikni teran his qilguvchi, hissiyotlarga boy, ta'sirchan shoir ichki kechinmalari, atrofini odamlar o'rav turgani holda, yolg'izlikda yashagan shaxs, siyosiy bo'hronlarda evrilgan shoh ruhiyati aks etgan. Bobur butun ruhiyatini imkon qadar so'zga ko'chirgan. «Boburnoma»ning ifoda tili inson tafakkuri, ruhiy olami xususiyatlarini imkon qadar to'liq aks ettirgan. Asarda muallif kuchqudrati va ojizligi, g'alaba va mag'lubiyatlari, ijobiy fazilat va nuqsonlari, quvonch-iztiroblari, jo'shqin va tushkun kayfiyati bilan namoyon bo'ladi. «Boburnoma»dagi shaxs ruhiyati mustahkam e'tiqodga ega, o'z qarashlarini hurmat qiladigan, qadr-qimmatini biladigan shaxs kechinmalaridir. Bobur har bir harakatini Alloh irodasidan deb biladi, har bir muvaffaqiyatini «tengri taolo inoyati»ga bog'laydi, barcha voqealar mohiyatida Allohnini ko'radi. Tangrining hukmiga, taqdirga ishonadi: Nekim azalda tengri taqdir qilibtur, andin o'zga bo'lmas. G'alabasini, muvaffaqiyatlarini Tangrining hukmidan deb biladi: Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shavkatidindur va bu saodatni o'zumuzning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur. Butun harakatlarini Tangrining inoyati bilan bog'laydi: Hech nima tengrining xostidin o'zga bo'lmas.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Asarda muallif ruhiyati darajama-daraja ifodalangan. Shu jihatdan «Boburnoma»ni ruhiyat solnomasi deyish mumkin.[6,9]. Dastavval olamga mehrmuhabbat, o'zgacha qiziqish bilan boqqan o'spirin keyingi umri davomida ayovsiz jangu jadallar, insonlar o'rtasidagi ko'ngilni xira qiluvchi munosabatlar, toj-taxt, davlat, mulk talashlari, sargardon kezish oqibati o'laroq jong'a yetadi, jonidan to'yadi: Axir mundoq 222 sargardonliqting va bu nav' bexonomonliqting jonga yettim. Bu o'rinda sargardonlik va bexonomonlik (darbadarlik, sarson-sargardonlik)dan charchash, umidsizlikka tushish natijasidagi ruhiy holat ifodalangan. Asardagi asosiy voqelik shunday tasvirlanadiki, xuddi uni kuzatish davomida o'sha vaqtning o'zidayoq qalamga tushirgan deysiz. Bobur oddiy narsalarga ham e'tibor qaratgan. Bu bizni diqqatliroq bo'lishga undaydi. Sulton Husayn mirzo borig'a ehson maqomida bo'lub, yomonliqlarini yuzlariga kelturmay.... Bu jumlalardagi «ehson maqomida bo'lish» iborasi kechirimli bo'lish, yomonlikka yaxshilik bilan, «jaholatga ma'rifat bilan javob qaytarish», «afv qilish» tushunchalarini aks ettirgan. «Boburnoma»dagi ruhiyat, holat tasvirlari til va tafakkurning til orqali fikr va xis-tuyg'ularini ifodalashi tilning tafakkur bilan bevosita bog'liqligini namoyon qiladi va fonetik vositalar bilan ham ifoda etiladi. Ma'lum bo'ladiki, tilning eng muxim birliklaridan biri bu fonetik usullar orqali xar bir so'zlovchi o'zining kayfiyatini va xis tuyg'ularini tinglovchilarga yetkazib bera olishdir.

XULOSA

Demak, nutq jarayonida nutq tovushlaridagi emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, fonetik stilistikaning o'rganish ob'ekti xisoblanadi. Asardagi asosiy vogelik shunday tasvirlanadiki, xuddi uni kuzatish davomida o'sha vaqtning o'zidayoq qalamga tushirgan deysiz. Bobur oddiy narsalarga ham e'tibor qaratgan. Bu bizni diqqatliroq bo'lishga undaydi. Sulton Husayn mirzo borig'a ehson maqomida bo'lub, yomonliqlarini yuzlariga kelturmay.... Bu jumlalardagi «ehson maqomida bo'lish» iborasi kechirimli bo'lish, yomonlikka yaxshilik bilan, «jaholatga ma'rifat bilan javob qaytarish», «afv qilish» tushunchalarini aks ettirgan. «Boburnoma»dagi ruhiyat, holat tasvirlari til va tafakkur munosabatlarini, psixologik jarayonlarni yoritishda ahamiyatlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Primov,H.Qodirova. “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” o'quv-uslubiy qo'llanma.Urganch-2019
2. Zaxiriddin Muxammad Bobur. Boburnoma.”IJOD PRESS” 2019
3. R.Rasulov.” Umumiy Tilshunoslik”. Toshkent-2010.
4. S.Hasanov. “Zahiriddin Muhammad Bobur”. Toshkent- “ O'zbekiston”.2011.- 88-b  
223
5. Safarov.Sh. “Konsept” hodisasi haqida/Sistem-Ctruktur tilshunoslik muammolari (N.Q.Turniyozov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari ). Samarqand-2010.
6. Teshaboeva Z.Q. «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalarida maqollarning berilishi. Toshkent davlat sharqshunoslik institutining ilmiy jurnali. № 1, TDShI. – 2011. – B.76-78. (07.00.00; №10).
7. Teshaboeva Z.Q. «Boburnoma»dagi emotsional birliklarning talqini. “ILM SARCHASHMALARI” 2-son Urganch davlat universiteti. – 2014. – №2. – B.6-9. (10.00.00; №3).